

## SHEVAGA OID SO‘ZLARNI SINTAKTIK XUSUSIYATLARI

Toshnazarova Sevinch Sherzod qizi

Azizova Dilbarxon Dilshod qizi

Abduxakimova Manzura Hojimurod qizi

Xamdamova Adolat Farhod qizi

Oriental universiteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabalari.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10645224>

**Annotatsiya.** Maqolada o'zbek tilshunosligida Dialektologiya sohasi. Tilning mavjud lahjalari, shevalarini o'rganilishiga oid qarashlar, ularning sintaktik xususiyatlari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** O'zbek shevalari, lahjalar, dialekt, etnografiya, folklor, inversiya hodisasi, so'z birikmasi, gap, undalmalar, proteza hodisasi, Milliy til.

### SYNTACTIC CHARACTERISTICS OF DIALECT WORDS

**Abstract.** In the article, the field of dialectology in Uzbek linguistics. Views on the study of existing dialects and dialects of the language, their syntactic features are revealed.

**Key words:** Uzbek dialects, dialects, dialect, ethnography, folklore, inversion phenomenon, word combination, sentence, impulses, prosthesis phenomenon, National language.

### СИНТАКСИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ДИАЛЕКТНЫХ СЛОВ

**Аннотация.** В статье рассматривается область диалектологии в узбекском языкознании. Выявляются взгляды на изучение существующих диалектов и диалектов языка, их синтаксические особенности.

**Ключевые слова:** узбекские диалекты, говоры, говор, этнография, фольклор, явление инверсии, словосочетание, предложение, импульсы, феномен протеза, национальный язык.

### KIRISH

O'zbek shevalarining morfologik va sintaktik xususiyatlari haqida to'la ma'lumot berishning darsliklarda imkoniyat chegaralangan, lekin ularning eng umumlashadigan, tadqiqot obyektini o'rganishga asos bo'ladigan o'rinlargagina to'xtalish mumkin. O'zbek adabiy tilidagi so'z turkumlari, gap bo'laklari shevalarda alohida xususiyatga ega emas, balki uning ichki shakl va kategoriyalarni, yozib olingan matnlar asosida sintaksisining o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.

### METOD VA METODOLOGIYASI

**Dialektologiya** (dialekt va logiya) — tilshunoslik sohasi. Tilning mavjud lahjalari, shevalarini o'rganadi. Unda lahja va shevalarning fonetik, morfologik, sintaktik va leksik xususiyatlari tavsif qilinadi. Milliy tilning paydo bo'lishi va rivojida shevalarning tutgan o'rni, milliy tilga asos bo'lgan shevalar aniqlanadi. Shevalararo, shuningdek, adabiy til va qardosh tillar bilan ularning munosabatlari belgilanadi. Shevalarning tarqalish chegaralari — lingvistik geografiya tomonidan o'rganiladi. Bu jihatdan Dialektologiya ikkiga:

- 1) tasviriy (yoki dialektografiya);
- 2) tarixiyga ajraladi.

Birinchiida mahalliy lahja va shevalarning fonetik tuzilishi, grammatik qurilishi, leksik tarkibi haqida mufassal ma'lu-mot beriladi. Ikkinchiida tilning dialektal xususiyatlarini qayd etish bilan birga, ularning kelib chiqishi, rivojlanishi va shakllanish tarixi o'rganiladi. Dialektologia tadqiqotlari tilning grammatik, leksik, orfografik va orfoetik me'yorlarini belgilashda mu-him ahamiyatga ega. Dialektologia tilshunoslik, etnografiya, folklor va b. bilan jips aloqada rivojlanadi. Fattoh Abdullayev, G'ozim Olim Yunusov, A. K. Borovkov, Shonozar Shoabdurahmonov va b. o'zbek dialektologiasini rivojiga sezilarli hissa qo'shgan.

Shevalar tizimining murakkablik darajasi, asosan, ekstralingvistik omillar: Shevaning alohidalanish (ajralib qolish) darajasi, muayyan Sheva vakillarining boshqa Shevalar va tillarning vakillari bilan aloqa qilish darajasi, adabiy tilning shahriga ta'siri va shahrik.ga bog'liq. Alohida ajralib qolgan Shevalarda uning vakillari bilan atrofdagi aholi o'rtasida aloqalarning yo'qligi (geografik yoki siyosiy sabablar, atrofdagi aholining til, madaniyat, diniy e'tiqod jihatdan ayni Sheva vakillaridan keskin farklanishi tufayli), sheva vakillarining an'anaviy turmush tarzini saqlab qolishga astoydil intilishi oqibatida Sheva juda sekinlik bilan o'zgaradi, katta va kichik yoshdagilarning tilidagi farq sezilsiz darajada bo'ladi. Adabiy tilning yoki boshqa shaharning kuchli ta'siri ostida bo'lgan shahrida aholining turli guruhlari nutqiga xos bo'lgan, birbiriga qarama-qarshi qo'yilgan va turli darajada farqlanadigan an'anaviy (qad.) va yangi qatlamlar ajralib turadi.

Milliy til tushunchasining hajmi va qo'llanish doirasi keng bo'lib, lahja va Shevalarni ham qamrab oladi. Shevalar adabiy til tushunchasiga kirmaydi, biroq ular tilning quyi shakli va tarmoqlari hisoblanib, adabiy tilni boyitish uchun xizmat kiladi. Adabiy til me'yorlarining takomillashuvi, fan va madaniyat taraqqiyoti, shahar bilan qishloq o'rtasidagi tafovutlarning kamayib borishi kabi ekstralingvistik omillar tufayli Shevalar ham asta-sekin o'z xususiyatlarini yo'qota boradi.

So'z yaralishida ham o'ziga xos xususiyatlar ko'zga tashlanadi. O'zbek adabiy tilidagi so'z yasovchi affikslar shevalarda rang-barang fonetik variantlarda uchraydi. **-äk,-ävik** fe'ldan sifat yasaydi: Suzag'on sigir~ **süzäk/süzävik siyir**, Suzag'on ot ~ **döpäk at** (Xorazm). **-al/ ül** sifat va ravishdan fe'l yasaydi: sarg'ay ~ **saral**, ozay ~ **azal**, ko'pay ~ **köpäl** (Xorazm). **-adoñ** affiksi otdan ravish yasaydi, uning ham singarmonizm varianti yo'q: oqshomgacha ~ **axšamadoñ**, kechgacha ~ **gečädoñ** (Xorazm). **-lak/ lüq** affikslari sifatdan ravish yasaydi: chapaqay oshiq ~ **čäpläk ä:šiq**, o'naqay oshiq ~ **oñlaq a:šiq** (Xorazm). *Shevalarda so'z birikmasi va izofali birikmalar.*

*O'zbek shevalarning sintaktik xususiyatlari kam o'rganilgan. Bu soha faqat M. Turobova va Y. Jumanazarovlarningina tadqiqot obyekti bo'lgan, xolos. M. Turobova Toshkent viloyati o'zbek shevalarining, Y. Jumanazarov esa o'g'uz shevalarining sintaktik tizimini o'rgangan. Ta'kidlash joizki, har bir lahja, dialekt va shevaning o'ziga xos sintaktik xususiyatlari to'g'risida fikr yuritish uchun tadqiqotlar hali yetarli emas. Ushbu o'zinda sheva materiallarning e'lon qilingan na'munalari asosida shevalarning ayrim sintaktik xususiyatlari keltiriladi.*

**Gap bo'laklari tartibi.** Shevalarda adabiy tilidagi so'z tartibi saqlanadi, lekin shevalarda inversiya hodisasi haddan ziyod ko'p uchraydi. **Gap bo'laklari inversiyasi quyidagi qoliplarda keladi: Kesim+ ega; Kesim+ to'ldiruvchi; Kesim +hol; Kesim + Ravishdosh.** Sheva matnlarida gaplarning qo'llanish xususiyatlari .

Shevalarda soʻz birikmalarining barcha turlari ishtirok etadi: Boshqaruv Moslashuv Bitishuv Sheva matnlarida koʻproq sodda gaplar qoʻllangan. Shunday boʻlsada, sodda gaplarni qoʻllashni chegaralab qoʻyish qiyin. Matnlarida koʻchirma gaplar faol qoʻllangan. Matnlarda qoʻllangan qoʻshma gaplar murakkab xarakterga ega emas. Undalmalar ham faol qoʻllanadi. Gaplarda kirish soʻzlar ham koʻp uchraydi. *Shevalarda gap boʻlaklarining takrori keng qoʻllanadi.*

- *Ega boʻlagi tautologiyasi;*
- *Koʻchirma gap pozitsiyasidagi soʻzlar takrorlanadi;*
- *Ixcham tarzidagi qoʻshma gap tarkibiy qismi takrorlanadi;*
- *Gap boʻlaklari takrorlanadi va unda harakat jarayonining davomiyligi yuz beradi.*

**Gap-** fikrni ifoda qiluvchi til va nutq birligi.

**Inversiya-** gapdagi odatdagi tartibning buzilishi va uning gap semantikasiga jiddiy taʼsir etmasligi.

**Soʻz birikmasi-** ikki mustaqil soʻzning oʻzaro aloqaga kirishuvi.

Proteza hodisasi Qarnob, Burgut Uyshun, Ming – Mangʻit, Xitoy, Qirq, Saroy, Nayman, usmjniy - turk, Xoʻjatug, Ispanza, Yangiravot kabi qarluq- chigil- uygʻur, qipchoq hamda oʻgʻuz guruh shevalari vakillarining talaffuzida koʻplab uchraydi. Ushbu shevalarda ikki yoki undan ortiq undosh tovushlar (r hamda ayrim sirgʻaluvchi tovushlar ) soʻzning boshida kelganda, talaffuz qulaylik tugʻdirishi uchun titroq r va boshqa xil sirgʻaluvchi undosh tovushlardan oldin iu, i, o, u, y, kabi unli fonemalardan biri orttiriladi. Bunday oʻzgarishlar oʻzlashtirma soʻzlarda koʻproq uchraydi. Masalan, ishkep-shkaf, `r`sk`- rizk, `r`skul- rizkul, stul va stol – ustel, smega – itsmete, sirga – isirga (qipchoq) kabilar. Adabiy tilda roʻmol, r oʻzak soʻzlari qipchoq shevalarida uramal, oraza tarzida qoʻllaniladi. Oʻgʻuz shevalarida bu soʻz protezaga uchramaydi, balki sof holda romal, roza tarzida qoʻllaniladi. Rus tili orqali kirib kelgan stol oʻzida esa bu qoidaga amal qilinmaydi, yaʼni stol soʻzi ham oʻgʻuz shevasa vakillari talaffuzida proteza hodisasiga uchraydi va uster deb qoʻllaniladi. Demak, boshqa shevalardan farqli oʻlaroq, oʻgʻuz lahjasi bu shevani chetlab oʻtadi.

Qiyqim (Ishtixon tumani), Ming (Urgut tumani), Qipchoq va Burkut (Poyariq tumani) shevalarida ham ikki undosh ketma- ket, qator kelgan har bir soʻzning oldida bir unli tovush orttirish hodisasi uchraydi. Bunday xususiyatlar Toshkent, Andijon, Uychi, Vodil, Parkent singari oʻzbek shevalari materiallarida ham uchrab turadi. Epiteza hodisasini qator oʻzbek shevalarida uchratganimizdek, oʻzbek adabiy talaffuzida ham mavjud ekanligini qayd etmogʻimiz lozim. Soʻz oxirida qatorlashib kelgan ikki undoshdan keyin a unlisini qoʻshib talaffuz qilinadi. Bu hol koʻpincha undoshlarning sk, nk.shakllaridan soʻng yuz beradi. Masalan, otpusk - otpuska, blank - blanka, tank - tanka, bank- banka kabi. Shuni aytish kerakki, 1956-yilgi oʻzbek tili imlosi meʼyori qonunlashganiga qadar hozirgi oʻzbek adabiy tilida ham epiteza hodisasi hisoblangan soʻzlar faqat lahja va shevalar bilan bogʻlanar edi. 1956 -yildan boshlab oʻzbek adabiy tili qoidasi qabul kilindi va toʻla rasmiy tus oldi. Qisqasi, epiteza hodisasi oʻzlashtirilgan soʻzlarda koʻproq mavjud boʻlib, oʻzbek xalq shevalari vakillarining talaffuzida uchraydi. Epenteza hodisasi oʻzbek tilining hamma shevalarida qoʻllaniladi. ayniqsa, Qarnob, Xoʻjatugʻ, Qangʻli, Baxmal, Mangʻit, Ming kabi shevalarda esa u yanada oydinlashadi. Masalan, adabiy tilidagi davr soʻzi Qarnob shevasida esa duvir shaklida uchraydi. Qiyos kiling: Qarnobda – dekelet, kerekt`r, t`renvey; Urgutda – daqolot, tirektir, tiranvoy. Adabiy tilda - doklad, traktor, tramvay. Oʻzbek tilining Kattaqoʻrgʻon va uning atrofidagi shevalarda ham xuddi Qarnob va Urgut shevalaridagi singari epenteza hodisasi kuchli

saqlangan. Masalan, `skelet - skalad, kensert - koncert kabi. Yuqoridagilar singari fonetik hodisalarni G'allaorol tumani Qang'li qishloq shevasida ham ikki undosh o'rtasida bir i unli fonemasining orttirilib talaffuz qilinishini ko'ramiz. Masalan, ilm- ilim, kosib- kasb- kesip, kaft-kepit kabi.

### **XULOSA**

Sinkopa hodisasining hosil bo'lishi bevosita urg'u masalasi bilan bog'langan bo'ladi.

Urg'usiz bo'g'inlarda bir unli fonemaning tushib qolishi sinkopa hodisasi hisoblanadi.

Masalan, maorif – merup// mer`p, Fotima – petme, silos – sles kabi. O'zbek tilining Kattaqo'rg'on, Qarnob, Parkent, Urgut, Mang'it kabi shevalarini va o'g'uz lahjasini olaylik. Bu shevalar vakillarining talaffuzida ayrim so'zlardagi ba`zi tovushlarni ishlatmaslik hollari (sinkopa) ko'plab uchraydi. Masalan, Parkent shevasida: kutubxona – biblioteka – bubleteke, billiard – bil`yart (Sh. Afzalov kuzatishicha) tarzida qo'llaniladi.

### **REFERENCES**

1. Reshetov V V, Shoabdurahmonov. Sh “O'zbek dialektologiyasi”, Toshkent, “O'qituvchi”, 1978- yil
2. Mirzayev M M , “O'zbek tilining Buxoro guruh shevalari” , Toshkent, 1969 -yil.
3. Ashirboyev S, “O'zbek dialektologiyasi” Toshkent, 2000 -y / ma'ruza matni/
4. Rajabov N “O'zbek shevashunosligi” Toshkent, “O'qituvchi” 1996-yil.
5. Murodova N “O'zbek tili Navoiy viloyati shevalarining lingvoareal talqini”, Toshkent , “Fan” 2007 yil
6. Doniyorov X “Qipchoq dialektlarining leksikasi”, Toshkent, “Fan”, 1997- yil.
7. Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. ЎзМЭ. Тошкент. 2002.
8. С. Ахманова Словарь лингвистических терминов издательство; Советская энциклопедия, Москва-1966.

### **Intertnet saytlari:**

9. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
10. <http://fayllar.org>
11. [www.wikipediya.uz](http://www.wikipediya.uz)
12. [www.arxiv.uz](http://www.arxiv.uz)